



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 2a-uy Tel.: (+998) 71 241-01-86; (+998) 55 503-74-00
web-site: www.uzedu.uz, e-mail: uzedu@exat.uz

2025-yil 5-sentabr

02-35-2939-son

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligiga

Ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasalari agentligiga

Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmalariga

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi "Iqtidorli o'quvchilar o'rtaida fan olimpiadalarini o'tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to'g'risida" 562-son qarorida umumta'lif fanlari bo'yicha Asosiy olimpiada davlat va nodavlat umumiyligida o'rta ta'lif tashkilotlari, akademik litsey va kasb-hunar maktablari o'quvchilari o'rtaida respublika miqyosida tizimli ravishda har yili tashkil etilishi hamda Asosiy olimpiadaning birinchi (maktab) bosqichi sentabr oyida o'tkazilishi belgilangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmalari 2025-2026-o'quv yili uchun umumta'lif fanlari bo'yicha Asosiy olimpiadaning birinchi (maktab) bosqichini 1-ilovadagi jadvalda belgilangan muddatlarda o'tkazilishini hamda nodavlat umumiyligida o'rta ta'lif tashkilotlarini ham Asosiy olimpiadaning mazkur bosqichini o'tkazish yuzasidan xabardor qilishingizni ta'kidlab o'tamiz.

Shu bilan birga, 2025-2026-o'quv yili uchun umumta'lif fanlari bo'yicha Asosiy olimpiadaning birinchi (maktab) bosqichini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar 2-ilovaga muvofiq yuborilmoqda.

Eslatma: 2024-2025-o'quv yilida Asosiy olimpiadaning uchinchi (hududiy) bosqichida 9-10-sinflar bo'yicha 1-o'rinni egallagan o'quvchilar joriy o'quv yilida olimpiadaning uchinchi (hududiy) bosqichida to'g'ridan-to'g'ri ishtiroy etadi. (ro'yxati ilova qilinadi)

Ilova:_____varaqda.

Vazirning
birinchi o'rinnbosari

Ijrochi: G. Xamrayeva
Tel.: 55 503-74-00 (6090)



Sh. Karimov

info@uzedu.uz



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'lifi vazirligi



www.uzedu.uz



uzedu



uzedu



uzedu.uz

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirligining
2025-yil "5"-sentabrdagi
02-35-2939-sonli xatiga
I-ILOVA

2025/2026-O'QUV YILI UCHUN UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA
ASOSIY OLIMPIADANING BIRINCHI (MAKTAB) BOSQICHI O'TKAZILADIGAN
FANLAR VA ULARNI O'TKAZISH MUDDATLARI

T/r	Fan nomi	O'tkaziladigan ta'lim tashkilotlari	O'tkazish muddati
I-GURUH FANLARI:			
1.	Matematika		
2.	Fizika		
3.	Kimyo		
4.	Biologiya		
5.	Informatika va axborot texnologiyalari		
II-GURUH FANLARI:			
6.	Ona tili va adabiyot		
7.	O'zbek tili (boshqa tillarda tahsil oladiganlar uchun)	Davlat va nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining 9-11-sinf o'quvchilari, akademik litsey va kasb-hunar mактабларининг 1-2-bosqich o'quvchilari	2025 -yil 17-25-sentabr
8.	Qoraqalpoq tili va adabiyoti		
9.	Rus tili va adabiyoti		
10.	Ingliz tili		
11.	Nemis tili		
12.	Fransuz tili		
13.	Tojik tili		
14.	Qozoq tili		
15.	Tarix		
16.	Geografiya		
17.	Davlat va huquq asoslari		

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligining
2025-yil "5"-sentabrdagi
02-35-2939 - sonli xatiga
1-ILOVA

**2025/2026-O'QUV YILI UCHUN UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA
ASOSIY OLIMPIADANING BIRINCHI (MAKTAB) BOSQICHINI TASHKIL
ETISH VA O'TKAZISH BO'YICHA
TAVSIYALAR**

1-§. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi "**Iqtidorli o'quvchilar o'rtaida fan olimpiadalarini o'tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to'g'risida**" 562-son qarorining 1-ilovasidagi Nizom talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Ushbu tavsiyalar 2025/2026-o'quv yili uchun umumta'lism fanlari bo'yicha Asosiy olimpiadaning **birinchi (mktab) bosqichini** (keyingi o'rnlarda - Olimpiada) tashkil etish va o'tkazish jarayonida qo'llaniladi.

2-§. OLIMPIADANI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH BO'YICHA TAVSIYALAR

2. Olimpiada davlat va nodavlat umumiyl o'rta ta'lim tashkilotlarining 9-11-sinf o'quvchilari, akademik litsey va kasbiy ta'lim tashkilotlari 1-2-bosqich o'quvchilari o'rtaida o'tkaziladi.

3. Olimpiadani tashkil etish va o'tkazishda ta'lim muassasasi pedagogik kengashi tomonidan quyidagilar amalga oshirilishi lozim:

olimpiada o'tkaziladigan kunlarini belgilash va o'quvchilar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha zarur choralarini ko'rish;

har bir fan bo'yicha hakamlar hay'ati tarkibini tuzish (3-7 nafar), apellyatsiya komissiyasi a'zolari ro'yxatini shakllantirish;

nazarat materiallarini tayyorlash va maxfiyligini ta'minlash choralarini ko'rish;

olimpiada natijalari va hakamlar hay'ati qarori asosida g'oliblarni keyingi bosqichda ishtirok etishi bo'yicha tavsiyani yuqori turuvchi tashkiliy qo'mitaga taqdim etish.

4. Olimpiada o'tkaziladigan joy va muddatlari bo'yicha barcha o'quvchilar olimpiadadan **kamida 3 kun oldin** (*e'lonlar taxtasi, ijtimoiy tarmoqlar va telegram guruhlarga e'lon joylashtirish, fan o'qituvchilari tomonidan mashg'ulotlar vaqtida, umumiyl saflanishda og'zaki e'lon qilish va boshqalar*) xabardor qilinishi lozim.

O'quvchilarni olimpiada o'tkazilishi haqida xabardor qilishni ta'minlashga ta'lim muassasasi direktori shaxsan mas'ul hisoblanadi.

O'quvchilar olimpiadalarda o'z xohishlariga ko'ra, ixtiyoriy ravishda qatnashadilar.

Ayrim sabablarga ko'ra belgilangan muddatda olimpiadada ishtirok etmagan o'quvchi uchun qayta olimpiada o'tkazish, olimpiadada ishtirok etmagan o'quvchini keyingi bosqichda ishtirok etish uchun tavsiya etish mumkin emas.

5. Har bir fan va sinf kesimida ishtirokchilar orasidan ballar ketma-ketligida **3 nafargacha** g'olib aniqlanadi va maktab pedagogik kengashining (*yoki nodavlat ta'lim tashkiloti rahbarining*) qarori bilan olimpiadaning keyingi bosqichida ishtirok etish uchun tavsiya etiladi.

6. Keyingi bosqichda ishtirok etish uchun tavsiya etilgan o'quvchilar hamda ularning o'qituvchilari haqidagi ma'lumotlar Fan olimpiadalari markazining axborot tizimiga joylashtirilishi shart.

Olimpiadani o'tkazish bilan bog'liq masalalar, nazorat materiallarining maxfiyligi, jarayonni adolatli va shaffof o'tkazilishini ta'minlashga **ta'lim muassasasi direktori** mas'ul hisoblanadi.

Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi olimpiadaning bиринчи bosqichini tashkil etilishni muvofiqlashtiradi hamda adolatli va shaffof o'tkazilishi bo'yicha nazoratni amalga oshiradi.

3-§. OLIMPIADA NATIJALARINI BAHOLASH

7. Olimpiada natijalarini baholash fanlar bo'yicha ta'lim muassasasi pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlangan baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

Olimpiada natijalarini baholash olimpiada o'tkazilgan kuni amalga oshiriladi.

8. Olimpiada fanlar bo'yicha test topshiriqlari, yozma va amaliy ish shaklida tashkil qilinishi mumkin.

Nazorat materiallari o'quvchilarning bilim, ko'nigmalarini standart va nostandard masalalarda, amaliy topshiriqlarda qo'llay olish malakalarini va kompetensiyalarini baholashga qaratilgan bo'lishi lozim.

9. Olimpiada ishtirokchilari topshiriqlarni o'zbek yoki rus tillarida bajarishi mumkin. Chet tillar va qardosh tillar bundan mustasno.

4-§. HAKAMLAR XAY'ATI

10. Olimpiadada ta'lim muassasasi pedagogik kengashi tomonidan 3 kishidan 7 kishigacha tarkibda hakamlar hay'ati tuziladi. (*ta'lim muassasasida fan o'qituvchilari soni kam bo'lgan taqdirda, boshqa ta'lim muassasalarining fan o'qituvchilarini olish mumkin*)

11. Ishtirokchilarga topshiriqlarni bajarish uchun berilgan vaqt yakunlangandan so'ng auditoriya rahbari tomonidan, ularning ishlari yig'ib olinadi va shifrlangan holda hakamlar hay'atiga topshiriladi.

12. Hakamlar hay'ati olimpiada ishtirokchilari tomonidan bajarilgan ishlarni xolisona tekshiradi va baholaydi.

13. O'quvchilarining ishlari hakamlar hay'ati tomonidan baholangandan so'ng, topshiriqlar hamda ularning yechimlari e'lonlar doskasiga osiladi.

14. Hakamlar hay'ati yakuniy ballarni qarorga kiritib, barcha ishtirokchilarining natija va qarorlarini e'lonlar doskasiga osadi.

Baholash jarayoni soat **18:00 dan** kechikkanda natijalarni avvaldan maxsus tashkil etilgan va barcha ishtirokchilar uchun ochiq bo'lgan telegramm kanal yoki guruhlarda e'lon qilish mumkin.

15. Hakamlar hay'ati topshiriqlar va ularning yechimi yuzasidan ishtirokchilarining talabiga ko'ra tushuntirish berishi mumkin.

16. Hakamlar hay'ati qaroridan norozi bo'lgan o'quvchilar apellyatsiya komissiyasiga **shu kunning** o'zida murojaat qilishga haqli.

5-§. APELLYATSIYA KOMISSIYASI

17. Apellyatsiya komissiyasi hakamlar hay'ati tarkibiga kirmagan **uch nafargacha** fan mutaxassislaridan iborat tarkibda tuziladi. (*ta'lif muassasasida fan o'qituvchilari soni kam bo'lgan taqdirda, boshqa ta'lif muassasalarining fan o'qituvchilarini olish mumkin*)

18. Apellyatsiya komissiyasi tomonidan olimpiada ishtirokchilarining arizalari olimpiada natijalari e'lon qilingan kunning o'zida qabul qilinadi. Apellyatsiya jarayonida hakamlar hay'ati a'zolari, ishtirokchi va uning fan o'qituvchisi ishtirok etishi mumkin.

19. Apellyatsiyaga olimpiadalar ishtirokchilarining faqatgina o'zları tomonidan bajarilgan ishlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha natija e'lon qilingandan so'ng shu kunning o'zida arizalar qabul qilinadi.

20. Hakamlar hay'ati tomonidan baholangan ishtirokchining bajargan ishida baholash mezonlariga mos kelmaslik holatlari aniqlanganda apellyatsiya komissiyasi hakamlar hay'ati qarorini bekor qilish yoki ularga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

21. Apellyatsiya komissiyasi hakamlar hay'atiga apellyatsiya natijalari bo'yicha izoh berib, olimpiada natijalarini o'zgartirishi mumkin va bunda hakamlar hay'ati qarori qayta tasdiqlanadi.